

Raxmatov Abduvali Abdulxakimovich

Chilonzor tumani MMTB tasarrufidagi 200-sonli IDUM o'quv ishlari bo'yicha direktor
o'rinbosari

SAMARQAND SHAHRI TARIXIGA OID BA'ZI MULOHAZALAR

Avvalambor Samarqand shahrining “Samarqand” so‘zining kelib chiqishi haqida bir qancha taxmin va qarashlar mavjud. Sharq mualliflari «Samarqand» so‘zining 1-qismi, ya‘ni «Samar» so‘zi shu shaharga asos solgan yoki shaharni bosib olgan kishining nomi deb hisoblab, bir qancha sun‘iy ta‘riflarni taklif etdilar, ammo tarixda bunday ismli kishi haqida ma‘lumotlar aniqlanmagan. So‘zning 2-qismi «kent» (kand) — qishloq, shahar degan ma‘noni bildiradi. Ba‘zi yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha «Samariya»ga yaqin, ya‘ni «yig‘ilish, yig‘in» so‘zidan kelib chiqqan deb izohlaydilar. Yana bir afsonada Samarqandning afsonaviy hukmdori Shamar ibn Xoris haqida rivoyat beriladi, u bu yerda o‘z ismi bilan atalgan “Shamarkat” degan shahar barpo etadi. Keyin bu nom Samarqand bo‘lib o‘zgarib ketadi deyiladi. Qadimgi davr mualliflarning asarlarida shahar “Marokanda” deb atalgan. Bu haqiqatga ancha yaqin bo‘lib, Marokanda — Samarqand atamasining yunoncha aytilishidir [1-3].

Aleksandr Makedonskiy shaharni istilo qilgandan so‘ng yunonlar uni “Marokanda” deb atay boshlashgan. Yana bir taniqli olim «Devoni lug‘atit-turk» asari muallifi Mahmud Koshg‘ariy boshqa taxmini keltiradi. Uning fikricha, shahar turkiy “Semizkent”, ya‘ni, “semiz, boy” shahar ma‘nosini anglatadi. Bu ham tasodifiy emas albatta. O‘lkaga tashrif buyurgan ko‘plab sayyohlar, tarixchilar va olimlar quyidagicha ta‘riflaydi. Jumladan: X asr taniqli arab geografi Istaxriy Samarqandni “Alloh yaratgan eng suyuqli yurtlardan biri”, deya ta‘riflaydi. At-Tabariy esa Samarqandni “musulmon amirlarining bog‘i” sifatida ulug‘laydi. XV asr ozarbayjon geografi Abdurashid al-Bakuviy Samarqandni ko‘rgach, “Er yuzida bu shahardan yaxshiroq, yoqimliroq o‘zga bir maskan yo‘q”, - deb yozgan edi. Ushbu ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Samarqand qadimdan barchaning e‘tiborini tortgan go‘zal va betakror maskanlardan biri bo‘lib kelgan.

Samarqand shahri hududi va uning atrof tumanlari, juda qadimgi zamonlardan inson ajdodining makoni bo‘lib kelgan. Samarqand vohasida odamzod avlodlari bundan 100-40 ming yillar oldin, ya‘ni o‘rta paleolit, davridan boshlab yashab kelgan. Zarafshon havzasi hududida ajdodlarimizning bir necha ming yilliklarga teng, boy tarixi mavjud. Bu hududda azaldan jahon madaniyati durdonalari bo‘lib kelgan yirik markaziy shaharlar shakllangan.

Samarqand insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy shahri va markazlaridan biri bo‘lishi bilan birga jahon madaniyati, san‘ati va fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan shaharlardan sanaladi. Samarqand o‘zining qariyb uch ming yil tarixi jarayonida o‘z boshidan turli tarixiy jarayonlarni kechirdi. Shunga qaramay Samarqand ajdodlarimiz yaratgan merosini, fan va madaniyatimizning ibratli jihatlarini avlodlarga avaylab yetkazib kelmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar va ulardan topilgan ashyoviy dalillar Samarqand shahrining yoshi 2750 yil ekanligini ko‘rsatadi. Samarqandning shimoliy chekkasida 200 gektardan katta maydonda tepaliklar yastanib yotibdi. Bu tepaliklarni mahalliy aholi “Shohnoma” dostonining afsonaviy qahramoni - Afrosiyob nomi bilan ataydi. Arxeologlar bir paytlar bu yerda mustahkam qal‘a-qo‘rg‘on va ularning baland minoralari, turarjoy binolari, hunarmandchilik ustaxonalari mudofaa devorlari oldidagi bir necha quduq va odam chiqolmaydigan qilib qurilgan darvozalarni mavjud bo‘lganlarni aniqlashganlar. Qadimgi shahar atrofi suv to‘ldirilgan mudofaa o‘rasi bilan o‘ralgan va Zarafshonning lazzatli ichimlik suvi bilan ta‘minlangan, bu suv qo‘rg‘oshin ariq - Jo‘yiarziz orqali keltirilgan bo‘lib, bu o‘z davrida Samarqandlik ustalarning eng yaxshi yutuqlaridan biri deb hisoblagan. Qazishma ishlari vaqtida topilgan madaniy qalin qatlam shaharning ko‘p asrlik hayotidan dalolat beradi. Ular turli davrlarga oid istehkomli inshootlar, hashamatli saroy va ibodatxonalar, shahar aslzodalari va aholisining turar joylari, hunarmandchilik ustaxonalari,

bozor maydonlari, hovuzlar va katta-kichik ariqlar o'tgan yo'llarni o'z ichiga oladi. Qadimiy Samarqand shahar hayoti paydo bo'lgandan to mo'g'ullarning fojiali bosqinigacha ana shunday ko'rinishda edi. Shaharda kurilishlar to'xtovsiz davom etgani bois, shahar hayotining ilk davrlariga oid ashyolar madaniy qatlamning eng ostida, 14-19 m gacha chuqurlikda qisman saqlangan. Arxeologlarning ko'p yillik qazishmalari, nihoyat, shaharning dastlabki madaniy qatlamlarigacha yetib borib, undagi nafaqat qatlam tizmalari, shu bilan birga ilk istehkom-inshootlari qoldiqlari, turar joylar, ro'zg'or buyumlari va zeb-ziynatlarni, yuqori qatlamlarda uchramagan, katta bulkaga o'xshab ketadigan qurilish g'ishtlari va ganchkor sopol parchalaridan tashkil topgan moddiy madaniyat yuqori qatlamlardagi ashyolardan keskin farq qilishini aniqlash imkonini berdi. Ayni vaqtda bu Farg'onadan Janubiy Turkmanistongacha bo'lgan ulkan hududda miloddan avvalgi I mingyillik boshlarida yashagan xalqlar madaniyatiga o'xshash tomonlari bilan ham xarakterlanadi. Bu madaniyat bir necha yuz yilliklarni qamrab olgani uchun Afrosiyobning aniq yoshini aytib berish imkoni yo'q edi. Lekin keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti xodimlari fransuz olimlari bilan parallel ravishda yana bir yirik shahar xarobalarida qazishma ishlarini boshladilar. Bu shahar Ko'ktepa nomi bilan mashhur bo'lib, hozirgi Samarqanddan 30 km shimoli-g'arbda joylashgan. Uning tarhi Samarqandning kichraytirilgan nusxasi bo'lib chiqdi, lekin bu shahar Samarqanddan farqli o'laroq antik davrlardayoq e'tibordan qoldi. Natijada uning qadimiy tarhi nisbatan yaxshi saqlandi. Ko'ktepaning ichki mudofaa devorlarida hashamatli binolar va ibodatxona inshootlarining bo'lmalari ko'zga tashlanadi, bu inshootlar ham ilk Samarqand qurilishlarida ishlatilgan guvalasimon shakldagi g'ishtlardan bunyod bo'lgan. Ana shu majmualarda qazishmalar olib borilib, ibodatxona va saroyning ilk shakli aniqlandi. Bu binolar o'sha davr andozasidagi g'ishtlardan ko'tarilgan, madaniy qatlamlarda esa o'sha davrning ganchkorlik idishlari aniqlangan. Ibodatxonaning marosim bajariladigan mehrobida muqaddas olov kullari saqlanib qolgan. Kulning radiokarbon tahlili olov yoqilgan voqea bundan 2750 yillar avval sodir bo'lganligini aniqlashga imkon berdi [2-4].

Ilk o'rta asrlarda Samarqand Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. 712-yilda shahar Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arablar tomonidan bosib olinib, Movarounnahr va Katta Xurosonning markaziga aylangan.

IX asrda Samarqand Somoniylar davlatining tarkibiga, X asr oxirida esa Qoraxoniylar davlatining tarkibiga kirgan. Bu davrda Samarqandda ulkan me'moriy inshootlar qurilgan bo'lib, ularning ko'p qismi, afsuski, Chingizxon tomonidan vayron qilingan. Keyin Samarqand mo'g'ullar istilosi natijasida vayron bo'lgan Xorazmshohlar davlatining tarkibiga kirdi.

Samarqand shahrining eng gullab yashnashi faoliyati bilan bogliq. Amir Temur 1370 yildan boshlab 35 yil mobaynida Sharqdagi eng qudratli davlatni barpo etdi. Bu davlat Urta Osiyo va Eron, Hindiston, Turkiya, Kavkazni o'z ichiga olgan edi. Mamlakatni birlashtirishga va tiklashga erishgan Amir Temur xalqning turmush tarzini davlat farovonligi bilan bevosita bog'ladi. Amir Temur o'z davlatining poytaxti ya'ni Samarqandga juda katta e'tibor berdi. Samarqand bu vaqtda minorali mudofaa devorlari bilan qayta o'ralib, minoralarga baland nayzali panjaralar o'rnatildi. Devor ichkarisidagi maydon va ko'chalar obodonlashtirilib, ariq va hovuzlar qazildi. Yangi mahobatli obidalar bunyod etildi [5].

Amir Temur savdo-iqtisodiy munosabatlarni jadal rivojlantirish maqsadida o'zi doimiy diplomatik yozishmalar olib borib, turli mamlakatlarning rahbarlariga yaxshi niyat bilan savdo ishlarini yo'lga qo'yishni taklif etgan. Amir Temur xalqaro ipak yo'li o'tgan joylarni egallab, u yerlarda obodonchilik tadbirlarini, karvonlarning bexatar harakatlanishini ta'minlash choralari ko'rdi. Ispan sayyohi va elchisi Klavixo Samarqand hammayoqning ko'kalamzorligidan hayratga tushgan Klavixo 1403 yil shunday deb yozgandi: "Butun shahar bog' va uzumzorlar og'ushida. Bog' va uzumzorlar bu yerda shunchalik ko'pki, shaharga yaqinlashayotganingda baland daraxtlar o'rmonini va ular o'rtasidagi shaharni ko'rasan..." Bu shahar bog'u oromgohlar bilan

bezangan davr edi. Shahar va uning atrofida sohibqiron 12 ta bog‘ - ayvonli chorbog‘lar, gulzor qilingan va suv havzalari bo‘lgan saroylar bunyod ettirdi.

Samarqand Sharq iqtisodiyoti va madaniyatining yetakchi markazi bo‘lib qoldi. Bu yerga eng yaxshi me‘morlar va quruvchilar, zargarlar va metalsozlar to‘planadi, olimlar, rassomlar, shoirlar, voizlar, raqqos va musiqachilar kela boshladi. Yevropa va Sharq davlatlaridan elchilar tashrif buyurdi. Movarounnahrning o‘ziga xos betakror madaniyati asosida Samarqand Yaqin va O‘rta Sharq ijodiy kuchlarining asosiy markaziga aylangani sayin badiiy tafakkur, me‘morchilik va san’atning gurkirab o‘sdi [6].

Temuriylardan so‘ng XVI asrda Temuriylardan keyin Shayboniylar sulolasi keldi va shahar Buxoro xonligiga tarkibiga kirdi. XVIII asrdan boshlab Samarqandni Ashtarxoniylar boshqargan, Buxoro xonligi esa Buxoro amirligiga aylantirilgan. Uzoq davom etgan o‘zaro ichki nizolar tufayli Samarqand iqtisodiy inqirozga yuz tutgan. Shaharni tiklashga birinchi urinishlar 18-asrning o‘rtalarida Mang‘itlar sulolasi tomonidan amalga oshirilgan.

1868-yilda shahar rus qo‘shinlari tomonidan bosib olindi. Bir yil o‘tgach, Samarqand shahri tashkil etilgan Samarqand viloyatining ma‘muriy markaziga aylandi. Qizig‘i shundaki, 1925-1930-yillarda Samarqand qisqa vaqt yana poytaxt bo‘ldi [7].

Bir so‘z bilan aytganda Samarqand nafaqat Sharqning balki dunyoning eng go‘zal va madaniyatga boy shahri bo‘lib qolmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Masul muharrir Sabirov A. - Toshkent: Akademiya, 2013.
2. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М.А.Рахимов. - Ташкент: Адабиёт учкунлари, 2018.
3. Islomov Z.M. O‘zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
4. Levitin L. O‘zbekiston tub burilish pallasida. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
5. Usmonov Q. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi. –Toshkent: Moliya, 2003.
6. O‘zbekiston mustaqillik yillarida. - Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
7. O‘zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlarini: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.